



BIRIKMALAR



Mustaqil so'z birikivi 2 ko'rinishda bo'ladi:

- 1 Barqaror birikma
- 2 Erkin birikma (nutqiy birikma)

☞ Mustaqil so'zning **barqaror birikuvi** nutq uchun avvaldan tayyor qilib qo'yiladi:



QO'SHMA SO'Z:

- *Sadarayhon*
- *uchburchak*
- *sotib oldi*
- *Qarshi davlat universiteti;*



IBORA:

- *Kalavaning uchini yo'qotdi*
- *Ilonni yog'ini yalamoq*
- *Yulduzni benarvon uradigan*



MAQOL:

- *Yetti o'lchab, bir kes.*
- *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.*

Bu birikuvning har birida kamida ikkitadan mustaqil so'z bo'lib, ular o'zgarmas, buzilmas qilib bog'langan. Sanalgan birliklar sintaktik qurilma emas, balki lug'aviy birlik, ularni tildan tayyor holda olamiz.

☞ Mustaqil so'zning **nutqiy birikuvi** nutq jarayonida yuz berib, shu jarayon paytidagina yashaydi, vaqtinchalik hodisa ekanligi bilan ajralib turadi:

Masalan:

- *olma va anor,*
- *kitobni o'qidi,*
- *Otam – o'qituvchi,*
- *mening uyim kabi.*



Nutqiy birikuv **ERKIN BOG'LANISH** deyiladi. Turg'un birikuv xalq tomonidan, erkin birikuv esa bir kishi tomonidan yaratiladi.



Mustaqil so'zning erkin bog'lanishi **2 xil** bo'ladi:



TENGLANISH– ikkita teng huquqli so'z biri ikkinchisiga bo'ysunmay bog'lanishi. Ya'ni bir mustaqil so'z boshqasiga ergashmay, izohlamay bog'lansa, **teng bog'lanish** deyiladi.

Teng bog'lanishda bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi. So'zlarning teng bog'lanishi asosida **SO'Z QO'SHILMALARI** hosil bo'ladi. So'z qo'shilmasida har bir so'z ma'no mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi. Ularni bir-biriga bog'lovchi vosita sifatida **teng bog'lovchilar** yoki **sanash ohangi** ishtirok etadi.

Teng bog'lanish biri ikkinchisini izohlamaydigan bog'lanishlar hisoblanadi:

- *olma va anor;*
- *o'qidi va yozdi;*
- *Salim, Halim*



Ular quyidagicha hosil bo'ladi:

1	Ohang yordamida	<i>Olma, o'rik, shaftoli, gilos pishdi.</i>
2	Biriktiruv bog'lovchilari yordamida	<i>O'qituvchi <u>hamda</u> o'quvchilar kelishdi.</i>
3	Zidlov bog'lovchilari yordamida	<i>O'qidi, <u>biroq</u> yozmadi;</i>
4	Ayiruv bog'lovchilari yordamida	<i>Kitob <u>yoki</u> daftar, <u>ba'zan</u> qor, <u>ba'zan</u> yomg'ir;</i>

5	Inkor bog'lovchisi yordamida	<i><u>Na</u> sen, <u>na</u> men;</i>
6	Ko'makchi-bog'lovchilar bilan	<i>Karim <u>bilan</u> Salim, olma <u>bilan</u> nok;</i>
7	Yuklama-bog'lovchilar bilan	<i>Yer-<u>u</u> osmon, keldi-<u>yu</u>, indamadi.</i>



TOBE BOG'LANISH- mustaqil so'zlarning bir-biriga o'zaro tobe bog'lanishi.

Tobe bog'lanish ikkiga bo'linadi:

1 SO'Z BIRIKMASI

2 GAP



GAPNING BO'LAKLARGA AJRATILISHI



Gap tarkibidagi o'zaro tobe bog'lanishda bo'lgan so'zlardan bittasi tobe bo'lak, ikkinchisi hokim bo'lak vazifasini bajaradi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka bog'lanib, hokim bo'lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa **gap bo'lagi** nomi bilan yuritiladi.

Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi.



Gap bo'laklari vazifasini mustaqil so'zlarga bajaradi.

Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatlariga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi.

Masalan:

- *Dildora kechagi uchrashuv haqida zavqlanib gapirdi.*

Mazkur gapda quyidagi gap bo'laklari mavjud:

*Dildora (kim?) **ega**, kechagi (qaysi?) **aniqlovchi**, uchrashuv haqida (nima haqida?) **to'ldiruvchi**, zavqlanib (qay tarzda?) **hol**, gapirdi*

(nima qildi?) **kesim**.




So'zlar quyidagicha sintaktik aloqaga kirishgan:

- 1) Dildora gapirdi;
- 2) zavqlanib gapirdi;
- 3) uchrashuv haqida gapirdi;
- 4) kechagi uchrashuv.



Gap bo'laklari 5 ta:



Demak, gap bo'lagi tobe bog'lanish doirasida, tobe qism vazifasida kelgan bo'laklar hisoblanadi. Uning qaysi bo'lak vazifasida kelayotgani hokim bo'lakka nisbatan aniqlanadi.

Gapda kesimgina boshqa bo'laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanini kesimlik shakllarida ko'rsatib turadi. Shuning uchun uni gap tarkibidan topish qiyinchilik tug'dirmaydi. Qolgan bo'laklar kesimga nisbatan aniqlanadi. Boshqa bo'laklar javob bo'lishi lozim bo'lgan so'roqlar kesimga qarab belgilanadi.



YODDA TUTING!!!

- ① Gapni gap qilib shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak kesim. Shuning uchun u gapning eng muhim bo'lagi, bosh bo'lak sanaladi.
- ② Ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan belgi, harakat

holatning bajaruvchisini ko'rsatadi va kesimdan keyingi bo'lak sanaladi.

- ③ To'ldiruvchi va hol bo'laklari kesim bilan tobe munosabatga kirishib, ularni to'ldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Shuning uchun ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deyiladi.
- ④ Aniqlovchi yuqoridagi barcha bo'laklarga bog'lanib, ularning ma'nosini izohlab keladi. Gapda qaysi bo'lak bilan munosabatda bo'lsa, shu bo'lak bilan birgalikda bitta gap bo'lagi, birikmali gap bo'lagi bo'lib keladi.



Shunday qilib, gap bo'laklari bir necha darajalarga bo'linadi:

Bosh bo'laklar

- KESIM
- EGA

Ikkinchi darajali bo'laklar

- TO'LDIRUVCHI
- ANIQLOVCHI
- HOL



BOSH BO'LAKLAR



Bosh bo'laklar quyidagilar:

KESIM



EGA




BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR



Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlari -u(-yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar **bog'langan qo'shma gaplar** hisoblanadi.



Ularning qolipi:



Masalan:

- *Shu onda chiroq o'chdi va birdaniga o'q uzildi.*
- *Mana sen ketding-u, bo'ldim xayolkash.*
- *O'qituvchi keldi va dars boshlandi.*
- *Yo sen o'qiysan, yo o'qishga majbur bo'lasan.*
- *Bahor keldi, ammo kunlar birdan isib ketmadi.*



Bog'langan qo'shma gaplarning quyudagi turlari bor:

**Biriktiruv
munosabatli
bog'langan
qo'shma gap**

**Zidlov
munosabatli
bog'langan
qo'shma gap**

**Ayiruv
munosabatli
bog'langan
qo'shma gap**

**Inkor
munosabatli
bog'langan
qo'shma gap**

BIRIKTIRUV BOG'LOVCHILARI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR



Biriktiruv bog'lovchilari qo'shma gapning payt, sabab-natija, munosabatlarida bo'lgan qismlarini bog'lab keladi.

Qismlari o'rtasidagi sabab-natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda ikkinchi qism oldidan **natijada** so'zini qo'yish mumkin bo'ladi.

Masalan:

- *Anor so'zlar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar.*
- *Anor so'zlar,(va) natijada Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar.*



Ba'zan **-u, (-yu), -da** yuklamalari ham biriktiruv bog'lovchilari bajargan vazifalarni bajaradi.

**PAYT MUNOSABATI:**

- *Umar uch qadamda bir to'xtab, nafasini rostlay-rostlay tepaga zo'rg'a yetdi, qopni ag'dardi-yu, muvozanatni saqlay olmay o tirib oldi.*
- *Gulchehra «piq» etib kuldi-da, cho'zilib tugunni oldi.*
- *Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.*
- *To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo'ldi.*

**SABAB-NATIJA MUNOSABATI:**

- *Inobat qizishib ketib, pisandaga o'tganini endi payqadi va uyalib yerga qaradi.*
- *Ro'paradagi g'orning bag'ridan qora tutun ko'tarildi va u yerdan yo'tal tovushi eshitildi.*
-

**ZIDLOV BOG'LOVCHILARI YORDAMIDA BOG'LANGAN
QO'SHMA GAPLAR**



Zidlov bog'lovchilari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi.

Zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari **vergul** bilan ajratiladi.

Masalan:

- *Dilimizda orzu balandroq edi, lekin ko'klam biroz noqulay keldi.*
- *Kechasi yana qor yog'gan, biroq havo unchalik sovuq emas edi.*



-u (-yu), -da yuklamalari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi.

Misollar:

- *Dilimizda orzu balandroq edi, lekin ko'klam biroz noqulay keldi.*
- *Gul to'g'risida yozganini ko'rganim yo'q, lekin paxta haqida ko'p yozadi.*
- *Yo'lning ikki chetidagi g'alla tovlanardi, ammo ular o'tgan yillardagi kabi baland emas edi.*
- *Kechasi yana qor yoqqan, biroq havo unchalik sovuq emas edi.*

AYIRUV BOG'LOVCHILARI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR



Ayiruv bog'lovchilari qo'shma gap qismlarini bo'glash bilan birga ularda ifodalangan voqea-hodisalarning galma-gal ro'y berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi.



Yo(yoki) bog'lovchisi yolg'iz holda ham, takror holda ham qo'llanilishi mumkin. Qolgan ayiruv bog'lovchilari takror holda qo'llaniladi va yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi.

Masalan:

- *Yo siz keling, yo man boray.*
- *Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi.*

MISOLLAR:

- *Goh osmonni tutib ashula yangraydi, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitaladi.*
- *Mashinaning nuqsoni bo'lsa, tuzatiladi yo yana yax-shirog'i yasaladi.*
- *Ba'zan qurbaqalarning qurillashi quloqqa chalinib, kishiga rohat beradi, ba'zan itlarning vovullashi bu ovozlarni bosib ketadi.*

ESLAB QOLISHIZ KERAK BO'LGAN QOIDALAR
--



SHEVAGA OID BIRLIKLAR VA ESKIRGAN SO'ZLAR USLUBIYATI



Shevaga oid birliklar adabiy til me'yorlaridan tashqarida, ular milliy til unsurlari sanaladi. Shuning uchun bunday unsurlar ilmiy, rasmiy va publitsistik uslublarda qo'llanmaydi.

Ammo ular oddiy (adabiy emas) so'zlashuv va badiiy uslubda muayyan bir me'yorda ishlatiladi. Badiiy uslubda qo'llangan shevaga oid unsurlar yozuvchining uslubiy-estetik maqsadiga xizmat qiladi.



Xususan, badiiy asarda qahramonning muayyan hududga mansub-ligini ta'kidlash, mahalliy koloritni yaratish, hayotning realistik tasvirini chizishga yordam beradi.

Shuningdek, shevadagi so'z va adabiy tildagi so'z ifodalagan tushun chalarda ayrim nozik farqlar mavjud bo'lganda ham yozuvchi shevadagi so'zni afzal ko'rishi mumkin.

Masalan, *hassos so'z ustasi Abdulla Qahhor bir qissasini «Sinchalak» deb sheva so'zi bilan nomlagan, adabiy tilda bu so'zning muqobili «chittak»dir. Lekin «chittak» so'zida qushning qo'nimsizligiga ishora bor, «sinchalak»da esa uning nozikligi (sinchaloq – jimjiloq so'zi bilan*

aloqador) ta'kidi mavjud, noziklik, albatta, ijobiy sifat. Shuning uchun yozuvchi alohida mehr bilan tasvirlagan qahramoniga nisbatan sheva so'zini ma'qul ko'rgan.

Eskirgan so'zlar ham badiiy va publitsistik uslublarda juda katta uslubiy qiymatga ega.

Siz bilasizki, eskirgan so'zlarning ikki turi mavjud:

1 Arxaik so'zlar

- *dudoq – hozirgi muqobili lab;*
- *meng – hozirgi muqobili xol;*
- *tilmoch – hozirgi muqobili tarjimon kabi*

2 Tarixiy so'zlar

- *yasovul,*
- *bek,*
- *xon,*
- *qozi,*
- *cho'ri*

Tarixiy so'zlar tarix mavzulari yoritilgan ilmiy va badiiy matnlarda o'tmishni real tasvirlash maqsadi bilan qo'llanadi.

Arxaik so'zlar matnga tarixiy kolorit berish bilan birga, zamonaviy mavzular yoritilgan badiiy va publitsistik asarlarda ko'tarinkilik, tantanavorlik ifodasiga xizmat qiladi.

TERMINLAR, KASB-HUNAR LEKSIKASI VA IBORALAR USLUBIYATI



Terminlar ilmiy va ilmiy-texnik tushunchalarning nomlari sifatida ilmiy uslubga xoslangan so'zlar yoki so'z birikmalaridir. Ular ilmiy uslubda tavsiflash va nomlash vazifalarini bajaradi va bu uslubning o'ziga xos ko'rsatkichlari sanaladi.

Terminlar badiiy va publitsistik uslublarda tasviriy-uslubiy vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Ilmiy va ilmiy-texnik jarayon, ishlab chiqarish manzaralarini tasvirlash, muayyan soha bilan bog'liq shaxsning nutqiy xarakteris tikasini yaratish kabi badiiy maqsadlar bilan terminlar mazkur uslublarda qo'llanishi mumkin.

Mamlakatimizning turli hududlarida qadimdan kulolchilik, duradgorlik, etikdo'zlik, gilamchilik, kashtachilik, tikuvchilik, naqqoshlik, temirchilik, pichoqchilik kabi bir qancha kasb-hunar tarmoqlari rivojlanib kelgan. Bu sohalarga oid maxsus tushunchalar, tabiiyki, o'ziga xos so'zlar bilan nomlangan, bunday so'zlar kasb-hunar leksikasi nomi bilan umumlashtiriladi. Ana shunday leksika, albatta, kasbiy-ilmiy matnlarning asosiy unsurlaridir.

Ayni paytda kasb-hunarga oid so'zlar va iboralar badiiy va publitsistik uslublarda qo'llanishi va tegishli sohaga daxldor hududiy o'ziga xoslikni ta'kidlashga xizmat qilishi mumkin.



Iboralar tilning eng muhim tasviriy-uslubiy vositalaridan biridir.

Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko'pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo'llanadi.

Masalan,

- *qo'l qo'ymoq,*
- *xulosaga kelmoq,*
- *qarshi chiqmoq,*
- *ovoz bermoq,*
- *qo'l ko'tarmoq*

kabi iboralar bunga misol bo'la oladi.

Iboralarning aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo'lib, kuchli ko'chma ma'no ifodasi bilan, yorqin emotsional-ekspressivligi bilan tilda yashaydi.

Masalan:

- *tomdan tarasha tushganday,*
- *tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq,*
- *oyog'ini qo'lga olmoq,*
- *o'pkasini qo'ltiqlamoq,*
- *chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq,*
- *qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoq kabi.*

Badiiy va publitsistik, shuningdek, so'zlashuv uslublarida iboralar xilma-xil tasviriy-uslubiy vazifalarni bajaradi, bunga iboralaridagi mavjud rang-barang uslubiy bo'yoq imkoniyat yaratadi.